




IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING “TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIBAGI

RESPUBLIKA MIQOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN

— 1 —



AMU-BUXORO MASHINA KANALINING BA'ZI GIDROLOGIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH

Y.Q. Hayitov,

BuxDU, Geografiya fanlari nomzodi, professor

U.H Badalov,

M.S G'aybulloyeva,

Geografiya(o'r ganish ob'ektlari bo'yicha)

mutaxassisligi II-bosqich magistranti

G.X.Xidirboyeva,

BuxDU, Tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada suv resurslarining gidrologik rejimi tahlil etilgan. Yirik suv inshootlari Amu-Buxoro mashina kanali, Uchlik suv inshooti, To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining morfometrik ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Amu-

Buxoro mashina kanalining qishloq xo'jaligidagi hamda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini suv bilan ta'minlashdagi ahamiyati to'g'risida fikrlar yuritilgan. Suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni sifat va miqdor jihatdan muhofaza qilish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Suv resurslari, Amu-Buxoro mashina kanali, To'dako'l suv ombori, Quyimozor suv ombori, gidrologik rejim, Uchlik suv inshooti, morfologik ko'rsatkichlar, Hamza-1 va Hamza-2 nasos stansiyasi, suv sarfi, suv hajmi, avtomatik tampa, suv sathi, suvning kimyoviy tarkibi, suv resurslarini baholash, gidrologik tadqiqotlar.

Ma'lumki, aholi sonining oshishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Bu talabni qondirish uchun esa istaymizmi-istamaymizmi suv resurslariga murojaat qilamiz. Aholini va qishloq xo'jaligi, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini suv bilan ta'minlashda kanallar muhim ahamiyat kasb etadi. Kanallarning barpo etilishi ularning gidrologik rejimini o'r ganishni taqozo etadi. Shu sababli ilmiytadqiqot ishlaramizda Amu-Buxoro mashina kanalini ba'zi gidrologik rejimini o'rgandik. Amu-Buxoro mashina kanali nafaqat Buxoro viloyatini balki Navoiy

viloyatini ham suv bilan ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda ham asosiy suv manbai 1962-1975-yillarda qurilgan Amu-Buxoro mashina kanalidir. Kanal orqali Amudaryodan har yili 4.2-4.8 km³ suv olinadi va relyef nishabligiga teskari yo'nalişda Buxoro, Qorako'l, Qorovulbozor vohalariga oqiziladi. Amu-Buxoro mashina kanali Buxoro viloyatidagi sug'orish kanali hisoblanadi. Amudaryoning o'ng qirg'og'idan CHORJO'Y shahri (Turkmaniston)dan 12km yuqorida boshlanadi. Qizilqumdan o'tib Buxoro vohasiga suv beradi. Birinchi navbatda 1965-yilda, ikkinchi navbatda 1976-yilda qurilgan. Umumiyligi 400 km. Suvni maksimal ko'tarish balandligi 111m, maksimal suv o'tkazish imkoniyati 270m³/s tashkil qiladi. Amu-Buxoro mashina kanali birinchi navbatda ishga tushurilgach, Buxoro viloyatida boshqa manbalardan sug'orilib kelingan 136,5 ming hektar yerni Amudaryo suvi bilan sug'orish mumkin bo'ldi. Amudaryo havzasidagi 377 ming hektar yerning suv bilan ta'minlanishini yaxshilashga erishildi. Magistral kanalda 65 ta gidrotexnika inshooti, 11ta nasos stansiyasi (jumladan, suvni 54 m balandlikka ko'tarib berayotgan 12,5 ming Kvt bo'lган 10 ta nasos agregatlari Hamza-2 nasos stansiyasi bor).

Amu-Buxoro mashina kanali nasos stansiyalari, ularning umumiyligi joylanishi, ayrim nasos agregatlarining quvvati, shuningdek, nasoslarning avtomatika va telemexanika vositalari bilan jihozlanishi jihatidan mamlakat irrigatsiya tajribasida noyob hisoblanadi. Birinchi marta Buxoro viloyatida nasos stansiyasining oldi kamerasida belgilangan suv sathini doimo bir xilda saqlab turadigan avtomatik tampa qo'llanildi. 152 kmda 3 yo'nalişda suv taqsimlagich qurildi.




1-rasm. Uchlik suv inshooti

Chapda Amu-Buxoro mashina kanalining birinchi navbati uchun (suv sarfi 60.3

m³), o'ngda Amu-Buxoro mashina kanalinining ikkinchi navbat uchun (suv sarfi 95,8m³) va o'rtada rostlash To'dako'l sho'rini yuvish hamda kelajakda uni to'ldirish uchun suv beradi. Amu-Buxoro mashina kanalinining ikkinchi navbat tugaydigan 191-kmda Qiziltepa nasos stansiyasi qurildi. U Amu-Buxoro mashina kanalinining ikkinchi navbatidan Zarafshon daryosiga suv uzotayotgan ikkinchi pog'ona hisoblanadi. Qiziltepa nasos tsansiyasining yuqori betida suv sathini ta'minlash uchun To'dako'l botig'iga suv tashlayotgan inshoot qurilgan.

Amu-Buxoro mashina kanali ikkinchi navbatining ishga tushirilishi 15,5 ming hektar yangi yerlarni o'zlashtirish Amudaryo suvi Buxoro, Navoiy viloyatlarining 77 ming hektar sug'orilayotgan yerlarini suv bilan ta'minlash imkoniyatini berdi. Amudaryodan Amu-Buxoro mashina kanaliga 1962-yil may-sentabr oylarida daryodan 208,2 mln.m³ suv olingan. Shundan keyingi yillarda kanalga olingan suv miqdori yildan-yilga ortib borgan va 1968-yilda 1,63 mlrd.m³ ga yetgan. Keyingi 1969-yilda esa daryodan olingan suv hajmi deyarli 3 marta kamaygan va 0,587 mlrd.m³ ni tashkil etgan.



2-rasm. Amu-Buxoro mashina kanalining ko'rinishi.

Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tavanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy

ta'lim plani - 2023.

Mazkur ma'lumotlar izlanuvchilar tomonidan o'r ganilib "O'ZGASHKLITI" Davlat unitar korxonasi hamkorligida 2023-yil 3-mart holatiga ko'ra tayyorlandi.

To'dako'l suvomborining suv tarkibi o'r ganilganda suvning kimyoviy tahlil natijalari

№	Namuna a olingan joy	Chuqurlig i metrda	Quru q qoldiq %%	Ionlarning tarkibi %%								PH	Suvning qattiqligi			Eslatm a		
				mg/ekvivalentda									Umumi y bir martali doimiy					
				HCO 3	CL	SO 4	Ca	Mg	Na+ K	CO 2	NO 3							
1			2144	128	40 5	897	204	86	343			7,8 2						
				2,10			10,18	7,1 1					17,2 9	2,1 0	15,1 9			

Amu-Buxoro mahina kanali suv tarkibi o'r ganilganda suvning kimyoviy tahlil natijalari

№	Namuna a olingan joy	Chuqurligi metrda	Quruq qoldiq %%	Ionlarning tarkibi %%								PH	Suvning qattiqligi			Eslatma		
				mg/ekvivalentda									Umumi y bir martali doimiy					
				HCO3	CL	SO4	Ca	Mg	Na+K	CO2	NO3							
1			1048	159	229	321	80	26	220			7,86						
				2,60			3,99	2,17					6,16	2,60	3,56			

Quyimozor suvomborining suv tarkibi o'r ganilganda suvning kimyoviy tahlil natijalari

№	Namuna a olingan joy	Chuqurlig i metrda	Quruq qoldiq %%	Ionlarning tarkibi %%								PH	Suvning qattiqligi			Eslatma		
				mg/ekvivalentda									Umumi y bir martali doimiy					
				HCO3	CL	SO4	Ca	Mg	Na+K	CO2	NO3							
1			1047	122	24 6	325	84	43	183			8,3 4						

Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tavanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy

ta'limi - 2022.

				2,00			4,1 9	3,5 5					7,7 4	2,0 0	5,74	
--	--	--	--	------	--	--	----------	----------	--	--	--	--	----------	----------	------	--

Keyingi yillarda ya’ni 1970-yildan boshlab kanalga olingan suv miqdori yana yildan-yilga orta borgan. Shu davrda uning eng katta qiymati 1985-yilga to’g’ri kelgan va 6,22 mlrd.m³ ni tashkil etgan, keyingi ya’ni 1986-1991-yillar davomida kanalga olingan suv miqdori keskin kamayib 4,2-4,7 mlrd.m³ oralig’ida o’zgargan. Shundan keyin, ya’ni 1992-1993-yillarda kanalga olingan suv miqdori yanada kamayib, mos ravishda 3,8-3,9 mlrd.m³ tashkil etgan. Lekin, kam suvli, 1999-2001-yillarda esa daryodan suv miqdori 5,3-5,9 mlrd.m³ gacha oshgan. Oxirgi, aniqrog’i 2009-2012-yillarda kanalga olingan suv hajmi deyarli bir xil bo’lib, 4,6-4,9 mlrd.m³ qiymatlar oralig’ida o’zgargan. Yuqorida keltirilgan rasmdan ko’rinib turibdiki, 1980-yildan boshlab Amudaryodan Amu-Buxoro mashina kanaliga olingan yillik suv miqdorlari barqarorlashgan. Shu holatni hisobga olib, Amu-Buxoro mashina kanaliga 1980-2012-yillar davomida olingan suv miqdorlarining eng katta, eng kichik va o’rtacha qiymatlariga mos kelayotgan yillarni aniqladik. Grafikda ko’rsatilganidek, 1985-yilda kanalga olingan suv miqdori eng ko’p 1993-yil kam suvli, 2002-yil esa o’rtacha suvli yiliga yaqin bo’lgan. Shu yili Amudaryodan kanalga 4,851 mlrd.m³ suv olingan. Chizmadan ko’rinib turibdiki, yillik oqimning 52%i iyun, iyul, avgust va sentabr oylariga to’g’ri keladi. Shu yili yanvar, fevral va mart oylarida kanalga olingan suv miqdorlari 21%ni tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Amu-Buxoro mashina kanalining ayrim gidrologik parametrlari aniqlandi;
2. Kanalning suv ta’minoti gidrologik jihatdan o’rganildi;

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасида атроф-табиий муҳит муҳофазаси ва табиий ресурсларидан фойдаланишнинг ҳолати тўғрисида «Миллий маъруза» Тошкент: CHINOR ENK 2006. -296 б.
2. Ўзбекистон Республикасида атроф-муҳит ҳолати ва табиий ресурслардан фойдаланиш тўғрисидаги «Миллий маъруза» (2008-2011 йиллар), - Тошкент: CHINOR ENK 2013. -258 б.
3. Ирригация Узбекистана. Том III. Ташкент: Изд-во «Фан», 1979. – 356 с.
4. Hayitov Yozil Qosimovich, Toshbekov Nurbek Ahmadovich, Elmonov Maruf Tuyg'unovich. Buxoro viloyatidagi cho'llanishga bog'liq ayrim mummolar va

ularning yechimlari. Urganch 2020.

5.Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. - Ташкент: VORIS - NASHRIYOT, 2007. -132 с.

BUXORODA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

U.T.Norboyeva,

BuxDU, biologiya fanlari doktori, проф.

umidanorboyeva1973@gmail.com

M.S.Sayfiddinova,

Geografiya(o'r ganish ob'ektlari bo'yicha)

mutaxassisligi II-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada Buxoro viloyati turizmini rivojlantiruvchi asosiy omillar ya'ni ziyyarat turizmi, etnografik, ekoturistik omillar va turizmnning tabiatda mavjud imkoniyatlaridan foydalangan holda hamda uzoq boy tarix, an'analar va madaniyatga ega bo'lgan voha xalqining kundalik faoliyatini mahalliy va xorijiy turistlarga namoyoish qilib daromad olish va xalqimiz madaniyatini butun dunyoga tarqatish imkoniyatlari olib berilgan.

Kalit so'zlar: Ziyyarat turizmi, ekoturizm, ekspeditsiya, og'zaki so'rov, statistik, tarixiy, Shofirkon, "Etti pir", "Xo'ja orif Rebgaroniy", "Xo'ja ali Romitaniy", tarixiy obidalar, hunarmandchilik, ovchlik, baliqchilik.

Turizm-sayohat inson tafakkuri va dunyoqarashini kengaytiradi. Sayohat kishilarni tabiatni sevishga, insonlar turmush tarzi va madaniyati, san'atimi teran bilishga xizmat qiladi. Shu bois, u o'z mohiyat, maqsad va mazmuniga ko'ra tom ma'nodagi ijtimoiy geografiyaga mos keladi. Binobarin, turizm keng qamrovli soha bo'lib, uning o'r ganish ob'ektnida geografiya fanining o'mni nihoyatda kattadir. Chunki, sayyoh uchun yangi joyni (mintaqa, tabiiy landshaft va h.k.) o'zi uchun kashf qilish, dunyonni bilish, tabiat qo'ynida dam olish, qadimiy yodgorliklarni ko'rish bevosita geografik sayohatlar asosida vujudga keladi.